

DESTRUKTIV XULQ ATVORGA EGA BO'LGAN SHAXSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Absaitov Arslon Sobirovich

Jizzax viloyati Baxmal tumani 9-maktab psixologi

Do'stmurotova Dilfuza Boshbekovna

Jizzax viloyati Baxmal tumani 11-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Maqlada destruktiv shaxs va uning manipulyativ munosabatlari, destruktiv shaxs manipulyativ munosabatlarining muqim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, nizoli o'zbek oilalarida er-xotinlarning manipulyativ munosabatlari darajasi tadqiqoti natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Destruktsiya, destruktiv munosabat, destruktiv shaxs, manipulyatsiya, manipulyativ munosabat.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatda insonlar hayotida tub burilishlarga sabab bo'layotgan o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklar, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida butun dunyoga keng tarqalayotgan ma'naviy va axloqiy buzuqlik yoshlarimizning dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishiga ham jiddiy xavf solmoqda. Yosh avlodni ularning ta'siridan asrash va destrutsiyaning oldini olish uchun oilalar bilan ish olib borishda psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqish va amalda qo'llashi kerak. Oilalar bilan turli psixologik tadbirlar tashkil etish lozim. Bunday tadbirlar milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan salbiy munosabatlari, insonlarning xulqida yuzaga kelayotgan o'ziga, oilasiga hamda jamiyatga havf olib keladigan ayanchli oqibatlarning mohiyatini ochib berishi orqali yoshlarimizning qalbida milliy tafakkur va sog'qlom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oilani asrab avaylash, mustaqkamligi uchun kurashish ruxiy olami mukammal insonlarga xosdir. Zero, har bir inson oila atalmish makonga tug'ilgan ondanoq ruhan bog'lanadi. Nozik tuyg'ular: baxt, quvonch, shodlik, sevinch kabilar eng avvalo oila a'zolarining ishtirokida, bag'rida tuyiladi. Oiladagi iliq psixologik muhit, ahqillik, hamfikrlik, bo'lishish kabi oliyjanob munosabatlar boshqa guruqlarda takrorlanmaydi.

Ba'zi oilalarda esa aqhillik o'rniga o'zaro janjal, samimiylit o'rniga hasad, iliqlik o'rniga sovuq munosabatlarning hukm surilishi ham sir emas. Oilada o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga sabab bo'lувchi omillar ko'p va xilma xil. Bunday vaziyatlarda oilaviy nizolar, ularning kelib chio`ish sabablari, oilada er-xotin, ota-onasi va farzand, farzand-farzand munosabatlari bilan bog'liq janjallarga ko'proq urg'u beriladi. Lekin, oilada destruktiv xususiyatli shaxs mavjud bo'lishi, uning o'ziga xosligi, oilada munosabatlarning buzilishiga olib keluvchi jihatlari, u xox ayol, xox erkak, aka yoki uka, opa yoki singil, ota yoki ona, amma yoki xola, toqa yoki amaki va xokazolar bo'lishi mumkinligi ikkinchi darajada qoladi. Psixologik tadqiqotlar esa oilada bitta destruktiv shaxsning borligi ham shu oiladagi munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Destruktiv shaxsning shakllanishi esa chuqur ildizga ega bo'ladi. Aniqroq aytganda kishi bir zumda, bir yumalab destruktiv shaxsga aylana olmaydi. Destruktiv shaxs destruktiv individual munosabatlar stili sifatida shakllanadi.

Individual munosabatlar stili insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida, ya'ni bolaning tuqilgunigacha va bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar shakllanib boradi. Insonning temperamenti shaxsning individual munosabatlar stilini tarkib toptiradi. Xuddi shu boisdan, shaxsning individual munosabatlar stili deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Destruktiv shaxs boshqalarnning fikrlarini va his -tuyg'ularini bilishiga ishonadi. U boshqalarni diqqat bilan tinglash o'rniga, o'z reaksiyalari asosida xulosa chiqaradi. Ya'ni, destruktiv shaxs - bu vayron qiluvchi, ongsizlikka tayanib harakat qiladigan shaxsdir. Ta'kidlash joizki, destruktiv shaxs faoliyatining turlaridan biri bu o'z-o'ziga buzg'unchi munosabat bo'lib, o'z joniga qasd qilishni ham o'z ichiga oladi. Shaxsning destruktiv

o'zgarishi muammosi falsafiy antropologiya, psixologiya va psixiatriyaning eng qiyin muammolaridan biri xisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, shaxs - bu o'ziga xos, takrorlanmas individual shakllanuvchi ya'ni o'ziga xos voqeylek bo'lib uni to'liq tadqiq etish imkoniyati cheklangandir. Destruktiv xulq-atvor psixologiyada etarli darajada tadqiq etilmagan, «destruktsiya», «destrukтив munosabat», «destrukтив xulq» tushunchalarining mazmuni, sabablari chuqur o'rganilmagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar destruktsiyaning xususan, o'smirlik davrida kuzatiladigan xulq oqishi, ayol va erkaklardagi agressivlik, qotillik, suitsid, terrorchilik faoliyati singari turli ko'rinishlariga e'tibor qaratganlar. Kuzatishlarga ko'ra destruktivlikning ayrim ko'rinishlari biolog, genetik, psixolog, seksopatolog, tarixchi, xuquqshunoslar tomonidan o'rganilgan. Muammoni yaxlit holda tadqiq etish uning mohiyatini anglashga yordam berishi mumkinligini xisobga olganda destruktsiya muammosi, destrukтив xulq, uning sabablari va oqibatlarining etarli darajada o'rganilmaganligi muammoning dolzarbligini asoslaydi. Mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish, destrukтив xulq-atvor asosini va uning har xil ko'rinishlari namoyon bo'lismeni tahlil qilish, destruktivlik muammosini hal etishning jahon tajribasini umumlashtirish insonning vayronkor tabiatini jilovlab turishga va destrukтив mayllarni boshqa faoliyat sohalariga yo'naltirishga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yaratish imkonini berishi mumkin. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson destruktiv faoliyatiga ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida baho berishga harakat qilingan. Xususan, uning biologik, neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, insonning tabiatidan kelib chiqib, destrukтив xulq mohiyatini tushuntirib berish mumkinligi ta'kidlanadi.

Tadqiqotchi Yu.A.Kleyberg o'zining destrukтив xulq-atvor tipologiyasini ishlab chiqishda —Shaxsning destruktivligi va uning buzg'unchi xatti-harakatlarga moyilligi, asosan, uning individual eksperimental rivojlanish xususiyatlari va bevosita ijtimoiy muhiti bilan belgilanadi. Garchi u ko'pincha vayronkorlik sifatida qabul qilinsada, hozirda mavjudlik uchun keskin kurash sharoitida millionlab yillar evolyutsiyasi bilan shakllangan har bir insonning tug'ma mulki sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, XIX-XX asrlarda falsafa, sotsiologiya, biologiya, psixologiya, neyropsixologiya va

psixofiziologiyaning rivojlanish tajribasi bu tuqma emas, balki ijtimoiy-tarixiy masalada baqslashishga imkon beradigan faktlarning to'planishiga olib keldi. tarixiy qarama-qarshi bo'lган jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllangan inson xattiharakatlarining buzg'unchilik tabiatidir. —degan printsipga asoslanadi.[5] Insonlarning destruktiv xulq-atvorining mohiyatini tushunishga ushbu yondashuvning asosini, albatta, L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy kontseptsiyasi tashkil etadi.[2] U har bir shaxsni bir-biridan biologik etukligi va madaniy rivojlanishini aniq ajratib turadi. Birinchisi, shaxsiyatni shakllantirish uchun tug'ma asos bo'lib, uni albatta e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ikkinchisi, ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan va rivojlangan shaxsiy rivojlanish mazmuni, bu har bir insonni o'rab turgan jamiyatdagi real munosabatlar interiorizatsiyasining samarasidir.

O'zbekistonlik psixolog U.D.Qodirovning —Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari nomli kitobida —Inson destruktiv faoliyatini tahlil qilish jarayonida asosiy e'tiborni ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo'ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratgani ma'qul. Destruksiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan omil deyishdan ko'ra, biologik jihatdan ahamiyatli degan fikr haqiqatga yaqindir. Yuqoridagi mulohazalarda destruktiv faoliyatning biologik va neyrofiziologik asoslari bayon qilingan bo'lib, uning psixik negizlarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. —deb ta'kidlagan [14] Oilada destruktiv xulqli shaxs u yoki bu jihatlari bilan oilaning boshqa a'zolariga ta'sir ko'rsatib, ularning ruxiy olamiga putur etkazishi mumkin. Jumladan, psixologik manipulyatsiyadan foydalanib, manipulyativ hatti harakat va munosabatlar orqali o'z qurbaniga ruhiy ta'sir ko'rsatishga ham qodir bo'ladilar. Jamiyatda shaxs o'zini yaxshi anglagan, hissiy-emotsional holatini nazorat qila oladigan, maqsadlarini to'g'ri qo'ygan va unga etishish uchun astoydil harakatda bo'lsa, unda hech qachon salbiy psixologik holat yuzaga kelmaydi. Har qanday sharoitda ham irodali, shijoatli kishilar oldinga qarab intiladilar. Salbiy kayfiyatidagi kishilarni kuzatsak, ular har qanday kichik muammoni ham kattalashtirib yuborishadi, behudaga asabiylashishadi. Chunki, bu toifadagi shaxslar o'ziga berilgan hayot imkoniyatidan to'g'ri foydalana olmaydilar.

XULOSA

Psixologlarning e'tirof etishlaricha, inson o'zini yangitdan shakllantirish to'qrisida ham bosh qotirishi kerak. Psixologlar mijoz bilan ishlayotganda ularga «O'zingizga savol bering. Men kimman? Nima uchun yashayapman? Qanday zaif tomonlarim bor? Nima qilsam hayotim yaxshilanadi? Atrofimdag'i insonlar uchun qanday yordam bera olishim mumkin? O'zimdag'i qaysi nuqsonlarni o'zgartirishim kerak? O'zimdan nima istayapman? Boshqalardan nima istayapman?» kabi savollar bilan murojaat qilib, shaxsni o'zini anglashga yo'naltiradilar. Inson ana shu kabi savollarni o'ziga berishi bilan hayotga shunchaki kelmaganini, oldida ulkan vazifalar turganini anglaydi. Mana shu anglash uni fikrlashga undaydi, fikrlash esa oldida turgan vazifalarning echimiga olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bursten B. Manipulator: A Psychoanalytic View, 1973.
2. Выготский Л.С. История развития высших психических функций // Выготский Л.С. Собр.соч. М., 1983. Т. 3. С. 5-328.
3. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита / Е. Л. Доценко. — М.: ЧеRo — Издательство МГУ, 1997. — 344 с.
4. Злоказов К. В. Деструктивность и идентичность личности // Научный ежегодник Ин-та философии и права Урал. отд-ния Рос. акад. наук. 2014. № 1.
5. Клейберг Ю. А. Типология деструктивного поведения // Вестн. Краснодар. ун-та МВД России. 2008. № 1.
6. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения. - М.: Изд-во Наука, 2001. - 399 с.
7. Пиз А., Пиз Б. Язык взаимоотношений: мужчина-женщина. – М.2005.
8. Берн Э. Введение в психиатрию и психоанализ для непосвященных. СПб.: МФИН, 1992. С.36
9. Sharafutdinova X.G. Destruktion of family pelations psychoprorkophylaxis family – neighborhood educational institution. South Asian Academic Research Journals South Asian Academic Research Journals, 10 Issue 11, November 2020
10. Sharafutdinova X.G. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, № 08 (100) 2021210
11. Қодиров У. Шахснинг ижтимоий-психологик тузилмасига оид айрим мулоҳазалар. //Таълим муаммолари, 2012 йил, -№2.
12. Куликов Л.В. Руководство к методикам диагностики психических состояний, настроений и сферы чувств. Описание методик, инструкции по применению. - СПб.: СПГУ, 2003.
13. Crawford C. The Politics of Life: 25 Rules for Survival in a Brutal and Manipulative World, 2007.